

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

5-2023

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

H.A.Abdualiyev

Tabiiy-geografik omillarning aholi joylanishiga ta'siri bo'yicha ayrim xulosalar (Farg'ona vodiysi viloyatlari misolida) 101

M.X.Otamirzayeva

Daryo havzalari landshaftlarini tadqiq etishning zamonaviy metodlari 108

 ILMIY AXBOROT

M.Abdupattoyev, X.P.Shodmonov

Sintaktik-stilistik figuralar konvergentsiyasi 115

A.A.Mirzayev

Ibn Al-Arabiyning tasavvufiy qarashlarining asosiy yo'nalishlari va yondashuvlari 119

J.J.Shodiyev

Inson qadrini yuksaltirish borasida Abdulqodir Bedilning falsafiy g'oyalari 125

M.И.Темирова

F.M.Dostoevskiyning "Aka-uka Karamazovlar" romanida ota va farzand munosabatlari 130

A.M.Mamajonov

Katta ma'lumotlar asrida milliy xavfsizlik tadqiqotlari 135

P.Sh.Kaxramonova

Badiiy asar tili va ekolingvistika (O'tkir Hoshimovning "Tushda kechgan umrlar" romani misolida) 141

J.U.Umaraliyeva

Zavqiy she'riyatida antroponimlarning qo'llanilishi 144

D.S.Ergasheva

O'zbek xalq ertaklari asosida vatanparvarlik va do'stlikka o'rgatishning pedagogik strategiyasini takomillashtirish 148

D.X.G'aniyeva

"Ta'lim" mikromaydonining paremiologik birliklari 153

X.X.Abduraxmonov

Maktab o'quvchilarning yengil atletika mashqlari orqali jismoniy tayyorgarlik darajasini oshirish 157

G.T.Hojikarimova, Sh.Usarova

Bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilarining kompetensiyasini rivojlantirish usullari (tikuvchilik buyumlarini konstruksiyalash va modellashtirish fani misolida) 161

O.Q.Abdullayev

Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarining bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish masalalari 164

J.Sh.Nazarov

Pedagogik OTM talabalarida sog'lom turmush tarzini rivojlantirish hamda yuksaltirishning amaliyotdagi holati 168

Sh.F.Latipov

Madaniy kontekstda lakunaga yondosh hodisalar 173

D.M.Yuldasheva, Z.I.Usmonova

Siddiq Mo'min ijodida mehr konseptining ifodalanishi 175

Sh.M.Robilova

Qizlarni oilaviy hayotga tayyorlashning psixologik va pedagogik ahamiyati 179

M.Sotvoldiyeva, G.Mirodiljonova

Chet tili o'qitish metodikasida zamonaviy usullar 183

R.R.Abdusattorov

Bolalarni suzishga o'rgatishda tayyorlov guruhining nazariy va amaliy asoslari 186

H.Arabboyev

O'quvchilarni ommaviy sport sog'lomlashtirish jarayoniga tayyorlash tizimini takomillashtirish texnologiyasi 192

F.Xalikov

Ta'lim tizimida testologiyadan foydalanishning nazariy asoslarini takomillashtirishning ilmiy-pedagogik asoslari 197

M.I.Yusupova

Rus tilidagi ommaviy axborot vositalarida "Vatanparvarlik" konseptining ifodalanishi 204

QIZLARNI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASHNING PSIXOLOGIK VA PEDAGOGIK AHAMIYATI**ПСИХОЛОГО-ПЕДАГОГИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ ПОДГОТОВКИ ДЕВУШЕК К СЕМЕЙНОЙ ЖИЗНИ****PSYCHOLOGICAL AND PEDAGOGICAL IMPORTANCE OF PREPARING GIRLS FOR FAMILY LIFE****¹Robilova Sharofatxon Mamajon qizi**¹Jismoniy madaniyat nazariyasi va uslubiyoti kafedrası o'qituvchisi**Annotatsiya**

Mazkur maqolada qizlarni oilaviy hayotga tayyorlashning psixologik va pedagogik ahamiyati, qizlarni bolalik vaqtidanoq oilaning qadri, muqaddasligini anglab yetishlari uchun turli xil metodlar orqali o'z fikr va mulohazalarimizni bayon qilamiz va pedagogik nuqtai nazardan tahlil qilamiz.

Abstract

In this article, we present and analyze from a pedagogical point of view the psychological and pedagogical significance of preparing girls for family life, various methods that allow girls to realize the value and sanctity of the family from childhood.

Аннотация

В данной статье мы излагаем и анализируем с педагогической точки зрения психолого-педагогическое значение подготовки девочек к семейной жизни, различные методы, позволяющие девочкам с детства осознавать ценность, святость семьи.

Kalit so'zlar: Oila, [nikoh](#), [mafкура](#), iqtisod, ma'naviy-axloqiy omil, fiziologik xususiyatlar, sog'lom turmush tarzi, shaxsiy gigiena, estetika.

Key words: Family, marriage, ideology, economics, spiritual and moral factor, physiological characteristics, healthy lifestyle, personal hygiene, aesthetics.

Ключевые слова: Семья, брак, идеология, экономика, духовно-нравственный фактор, физиологические особенности, здоровый образ жизни, личная гигиена, эстетика.

KIRISH

Bugungi kunda yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashda ularning oilada olgan tarbiyalari, odo-axloqlari katta ahamiyat kasb etadi. Kelajakda mustaqil oila quradigan yoshlar tarbiyasida ota-onaning ma'suliyati cheksizdir. Hayot davomida bolalar katta avlod vakillaridan o'ziga karshi jins vakillariga nisbatan munosabat to'g'risida anchagina ma'lumot oladilar, nikoh, oila haqida, xulq me'yorlarini o'zlashtiradilar. Ularda o'rtoqchilik, do'stlik, g'urur va burch singari tuyg'ular erta rivojlanadi. Bularning bari qimmatli bo'lishiga qaramay, hozirgi bizning tezkor hayotimizda bularning tabiiy ravishda yuz berishining o'zi kamlik qiladi. Shu sababdan, unga maxsus tayyorgarlik ko'rish vazifasi, asosan, maktab va oila zimmasiga yuklatiladi. Bunda yoshlar umr yo'ldoshi va ota-ona majburiyatlari, bola tarbiyasi bilan bog'liq majburiyatlarni bajarishga o'rganadilar.

Shu bilan birga, nafaqat dunyoviy balki dinimizda ham odamni tuproqdan yaratgan va sokinlik topishi uchun undan o'z juftini yaratgan hamda ularning nikoh orqali oila qurib yashashlarini iroda qilgan. «Nikoh mening sunnatimdir. Kim sunnatimdan yuz o'g'irsa, mendan emasdir», degan Rasuli Akram Muhammad Mustafoga bitmas-tuganmas salovotu salomlar bo'lsin!

Ammo ming afsuslar bo'lsinkim, keyingi paytlarda G'arbdagi ba'zi bir jamiyatlarda «hurriyat», «shaxs erkinligi» degan soxta shiorlarni ro'kach qilib olgan ayrim buzg'unchilar «Oilaning keragi yo'q, nikoh shart emas, u insonning erkini cheklab qo'yadi» degan da'voni ko'tarib chiqishdi. Yana ming afsuslar bo'lsinki, bu safosatga ishonadiganlar ham yo'q emas va ko'payib bormoqdalar. Oxir oqibat hozirga kelib, ko'plab muammolar kelib chiqdi: insonning sof tabiatiga zid bo'lgan ushbu dunyoqarashga qul bo'lgan yurtlarda oilaning qadri qolmadi, oila a'zolarining o'zaro ehtiromlari, mehr muruvvatlariga putur yetdi. Erkak va ayollar o'z oilasida tinch-totuv yashashning o'rniga harom-xarish kayfu safoga berildilar. Nasl-nasab haqida qayg'urish ular uchun yot narsaga aylandi. Farzand orttirish, bola tarbiya qilish ularga yoqmay qoldi. Islom shariati, umuman, yengillik ustiga bino qilingandir. Bu haqda ko'plab oyat va hadislar bor. Xususan, erkak va ayol, oila, nikoh

masalasiga kelsak, bu masalalarda ham Alloh taolo O'z bandalariga yengillikni istagan va ularga oila qurib, halol-pok yashashni amr qilgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Jamiyatda ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashtirish, mahalla institutini yanada qo'llab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida" 2020-yil 18-fevraldagi PF-5938-son Farmoni ijrosini ta'minlash, shuningdek, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash va zamonaviy namunali oila mezonlarini hayotga joriy etish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qilgan. Bundan tashqari, yurtimizda oilani mustahkamlash va tinchligini ta'minlashga oid ko'plab ishlar amalga oshirilmoqda.

Ayni shiddatli zamonda aholi, ayniqsa, yoshlar va xotin-qizlarni ish bilan ta'minlash biz uchun eng dolzarb vazifa bo'lib kelmoqda. Xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, ularning mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayotida to'laqonli ishtirok etishiga erishish, gender tenglik va reproduktiv salomatlikni ta'minlash bo'yicha ham keng ko'lamli ishlar qilinyapti.

Ayniqsa, ijtimoiy himoyaga muhtoj xotin-qizlarni zamonaviy uy-joylar bilan ta'minlash bo'yicha yangi tizim yaratildi.

Oila qon-qarindoshlik, qarindoshchilik (nikoh orqali) yoki birga istiqomat qilish orqali bog'langan odamlardan iborat ijtimoiy guruhdir. Ko'p jamiyatlarda oila bolalar ijtimoiylashuvi uchun asosiy institut vazifasini o'taydi. Antropologlar oilalarni matrilokal (ona va uning bolalari), er-xotin (bolalari bo'lsa, nuklear oila deyiladi) va qon-qarindosh (nuklear oila va qaynata-qaynana birga yashovchi) tiplarga ajratishadi.

NATIJA VA MUHOKAMA

Oila — nikoh yoki tug'ishganlikka asoslangan kichik guruh. Uning a'zolari ro'zg'orining birligi, o'zaro yordami va ma'naviy mas'uliyati bilan bir-biriga bog'langan. Oilaning eng muhim ijtimoiy vazifalari — inson zotini davom ettirishdan, bolalarni tarbiyalashdan, oila a'zolarining turmush sharoitini va bo'sh vaqtini samarali uyushtirishdan iboratdir.

Oilaviy munosabatlar nisbatan mustaqil hodisa sanalsada, jamiyatdagi mavjud ijtimoiy, iqtisodiy, mafkuraviy munosabatlar bilan belgilanadi va ular ta'sirida o'zgarib boradi. Shunga muvofiq, har bir jamiyat o'zgarib mos oila tipini, oilaviy munosabatlarni o'rnatadi. Qizlarni oilaviy hayotga tayyorlash mazmuni, shakl va metodlarini belgilashda jamiyatning shaxsni shakllantirish va rivojlantirishga qo'yiladigan talablari asos qilib olindi. Oila tarbiyasiga doir monografiyalarga tayangan holda qiz-yoshlarni unga tayyorlashda quyidagi muhim omillarni hisobga olish nazarda tutildi:

1. Ijtimoiy omil. Qizlarga mustaqillik davrida O'zbekistonda oila-nikoh munosabatlarini tashkil etishning davlat siyosati darajasiga ko'tarilishi, demografiya masalalarining mohiyati va oilada sog'lom turmush tarzi, oila qadriyatlarini, uning ijtimoiy institut sifatidagi ahamiyati, oilada er-xotinning o'rni haqida ma'lumotlar beriladi.

2. Ma'naviy-axloqiy omil. Bunda er-xotin o'rtasidagi o'zaro munosabatlar: oilada ota-onaga va boshqa katta yoshdagilarga hurmat, kichiklarga g'amxo'rlik; bolalar tarbiyasiga qo'yiladigan talablar; mas'uliyatni his qilish; samimiylik, sadoqat, to'g'rilik, insoniylik, bosqlik, adolatlilik, kechirimlilik va boshqalar; oilada nikohning axloqiy muhitini saqlash; sevgi-muhabbatga oilaning axloqiy o'zagi sifatida qarash; oila, er-xotin va bolalar o'rtasidagi burchni his etish; his tuyg'ular madaniyati; er va xotin, ota-ona to'g'risida ideal tasavvurlarni tarbiyalash nazarda tutiladi.

3. Huquqiy omil. qiz-yoshlarga oila va nikoh to'g'risidagi qonun asoslari; oilaning muhim ijtimoiy vazifalari; oila huquqlarining muhim me'yorlari; er va xotinning o'zaro hamda bolalarga, jamiyatga bo'lgan munosabati va burchlari tanishtiriladi.

4. Psixologik omil. Insonning shaxs sifatida rivojlanishi, yoshlarga bo'lgan munosabatlar, oilaviy hayotga nikohning psixologik ahamiyati; boshqalar bilan munosabatda ularning psixologiyasini tushuna olish; er-xotinlik va oilaviy hayotda eng zarur tuyg'ularni rivojlantirish, o'zaro kommunikativlik aloqa, muomala, muloqot madaniyatini egallab olishga doir ko'nikmalar hosil qilinadi.

-Qiz-yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash konsepsiyasi mazmuni quyidagilarni qamrab olishi kerak:

- O'zbekiston Respublikasi fuqarolik protsessual kodeksida huquqiy ongning ifodalanishi; kodeksning mohiyati haqida bilim beriladi.
- mustaqil davlatimiz – O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasida fuqarolarning oiladagi burch va mas'uliyati.
- oila – muhim ijtimoiy institut, davlat tayanchi. U mafkuraviy tarbiyaning muhim ijtimoiy omillardan ekanligi, jamiyatda har bir oilaning mustahkamligi, uning farovonligi va ahilligini ta'minlash.
- oila tushunchasi va uning ahamiyati, oilaning maqsad va vazifalari, o'zbek oilalarining o'ziga xos xususiyatlari, oiladagi o'zaro munosabatlarning oila mustahkamligiga ta'sirini ko'rsatish nazarda tutiladi.
- ota-ona va farzandlik burchi, ota-onaning oila tayanchi ekanligi, ularning oila-bobolar, buvilar, farzandlar bilan munosabati.
- otaning oilani moddiy jihatdan ta'minlashi, ota va onaning oilada farzandlar oldidagi burchi yoritib beriladi.
- oilada farzand burchi, ota va ona haqi, islom ta'limotida farzandlarning burchi va mas'uliyati haqida bilim beriladi.
- axloqiylik – ma'naviyat mezonini ekanligi, yoshlarning axloqiy xislatlari:
- yigitlardagi mardlik, botirlik, jasurlik, tantilik, rostgo'ylik, mehnatsevarlik, vatanga sadoqat, mehr-shavqat, do'stlik, o'rtoqlik va boshqa xislatlilik;
- qizlardagi xushxulqlik, hayo va ibo, nazokatlilik, mehr-muhabbat, sadoqat va vafodorlik, latofatlilik, zukkolik va boshqalar.
- yoshlarning xulq-odob qoidalariga rioya etishlari, muomala munosabatda axloqiy me'yorlarini anglab olishlariga e'tibor beriladi.
- oila va nikoh masalalarida axloqiy me'yorlari, oila a'zolarining o'zaro muloqoti va bunda jamoat joylarida muloqoti va bunda jamoat joylarida muloqot madaniyatiga rioya etish.
- oila va oila a'zolarining sirini saqlash; muloqot madaniyati va oilaviy munosabatlar; sir saqlash talablarining milliy qadriyatlarda ifodalashi va ularni tarkib toptirish shakl va metodlari yoritib beriladi.
- qiz-yoshlarning qonunlarni bilishlari va o'z faoliyatlarida unga rioya etishlari; fuqarolik jamiyatining qonuniy talablari.
- qiz-yoshlar o'rtasida qonunbuzarlik holatlarining paydo bo'lishi sabablari; qonunbuzarlikning oldini olish yo'llari.
- oila a'zolari orasida o'zaro munosabatlarning yo'lga qo'yilishi sog'lom psixologik muhit yaratilishining asosiy omili ekanligi.
- oila a'zolari o'rtasida muvofiqlik, o'zaro muloqotga psixologik muhitning ta'siri va bu oila a'zolari o'rtasidagi ijobiy munosabatlar natijasi ekanligi; oiladagi ijtimoiy-maishiy, siyosiy, moddiy turmush ikir-chikirlariga oila a'zolarining psixologik muvofiqligi.
- oila rivojlanishida va er-xotinning o'ziga xos munosabatlarida psixologik muhitning o'rni.
- yoshlarning jinsiy balog'atga etishiga tana a'zolarining anatomik-jismoniy jihatdan o'ziga xosligi, inson organizmida ichki va tashqi organlarining o'zgarishi; ularning belgilari; tasodifiy, nikohsiz jinsiy aloqalardan saqlanish.
- har bir qiz-yoshning poklik va tozalikka rioya etishi; poklik- ma'naviyat negizi ekanligi; xalq tabobatida inson salomatligi, xo'jalik yuritishda poklikka rioya etish; xalq tabobatining oilaviy hayotdagi o'rni; xalq tabobatining asosiy tamoyillarini yoshlarga o'rgatish yo'llari, shakl va metodlarini yoritishga e'tibor beriladi.
- oilada kun tartibiga rioya etish, ota-onaning bolalar kun tartibini yo'lga qo'yishdagi talablari.
- qizlar va yigitlar o'rtasidagi munosabatlar madaniyatini tarbiyalash: o'z hissiyotlarini boshqara olish, o'zini tuta bilish, sabr-qanoat, intizomda milliy qadriyatlarimizga tayanish.
- mehnat tarbiyasida tejamkorlikka rioya etish va isrofgarchilikning oldini olish muhim axloqiy qadriyat ekanligi;
- tejamkorlikning oiladan boshlash, hisob-kitob yuritish uquvi, oilada mahsulotlar sifatini saqlash, nonni e'zozlash, liboslar, poyabzallarni, uy jihozlarini asrash va joy-joyiga qo'yish, qishda yozga, yozda qishga tayyorlanish, tejamkorlikda katta yoshdagilarning kichiklarga namunasi sifatida milliy qadriyatda aks ettiradi.

XULOSA

Yuqorida ko'rsatilgan oilaviy hayotga tayyorlash bo'yicha ish va tadbirlarni tashkil etishda ma'lum bir ilmiy – amaliy uslub va metodlardan qo'llash tarbiya samaradorligini oshirishga yordam beradi. Qiz-yoshlarni milliy qadriyatlar mazmuni asosida oilaviy hayotga tayyorlash yo'llari, shakl va metodlarini belgilashda jamiyatning shaxsni shakllantirish va rivojlantirishga qo'ygan talablari asos qilib olindi. Oilada bayramlar, "Navro'z" va uning oila, mahalla, tuman va viloyatlarda, butun Respublikamizda nishonlanishi, oilaviy an'analar, xotira va qadrlash kunlarga bog'liq bo'lgan marosimlarni o'tkazish, ularni milliy qadriyat sifatida avaylab-asrash, tiklangan an'alarimizni nishollash ham juda kata ahamiyatga egadir. Bularning barchasi qizlar voyaga yetmasdan oldinoq o'rgatilishi ma'qul.

Ushbu tajriba-sinovimiz Farg'ona davlat universitetida "Oilaviy hayot etikasi va psixologiyasi", "Oila pedagogikasi" va "Milliy istiqlol g'oyasi", "Pedagogika" o'quv fanlari mavzulari tarkibida, shuningdek, guruhlarning haftalik yig'ilishlarida qizlar ongiga xotin qizlar masalalari bo'yicha dekan o'rinbosarlari, pedagoglar va psixologlar bilan birgalikda yetkazildi hamda auditoriyadan tashqari tarbiyaviy tadbirlar tarkibiga kiritildi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Robilova, M. S. (2022). OILA-MAKTAB HAMKORLIKLARINI TAKOMILLASHTIRISHGA OID YANGI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNI JORIY QILISH MUOMMOLARI. *Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities*, 10(12), 183-188.
2. Sharofat, R., & Nigora, A. (2023). THE ROLE OF GYMNASTICS IN THE PHYSICAL DEVELOPMENT OF CHILDREN AND ADOLESCENTS. *Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development*, 12, 32-37.
3. Yuldashov, I. A., & Robilova, S. M. (2022). Problems of physical development of preschool children and junior school children. *Asian Journal Of Multidimensional Research*, 11(9), 125-130.
4. Sharofatkhon, R. (2022). The Role of Parents and Its Significance in Forming a Healthy Lifestyle in the Family. *Eurasian Journal of Humanities and Social Sciences*, 14, 63-68.
5. Robilova, S. M. (2023). CHARACTERISTICS OF PRACTICAL PHYSICAL DEVELOPMENT OF TEENAGE STUDENTS IN FAMILY-SCHOOL PARTNERSHIP. *Conferencea*, 60-65.
6. Mamajonovna, R. S. (2023). FEATURES OF PRACTICAL PHYSICAL TRAINING OF ADOLESCENT STUDENTS. *Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities*, 11(4), 2371-2375.
7. Robilova, S. M. (2023). O 'SMIR YOSHDAGI O 'QUVCHILARNING JISMONIY MADANIYAT, JISMONIY TARBIYA VA JISMONIY RIVOJLANISH ASOSLARINING AHAMIYATI. *IJODKOR O'QITUVCHI*, 3(29), 764-768.